

## BUDJET AUDITI TIZIMINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARI

*Namozov G‘ayratjon Baxtiyor o‘g‘li*

*O‘zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi tингlovchisi*

**Annotatsiya:** Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida bo‘lgan yurtimizda ham har bir sohada islohotlar, yangilanishlar va o‘zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda xarajatlar asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri budget mablag‘laridan amalga oshirilishini hisobga olsak, har qanday loyihalarni bajarishda mablag‘lardan oqilona foydalanish, risklarni mimimallashtirish talab qilinadi. Shuningdek qonun buzilish holatlariga, samarasiz yakunlanadigan loyihalarga va mablag‘larni talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik ham muhim sanaladi. Maqolada aynan yuqoridagi masalar yuzasidan so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** budget auditi, xalqaro audit standartlari, davlat xaridlari, samaradorlik auditi, sun’iy intelekt, ochiqlik va shaffoflik.

**Abstract:** Our country, which is one of the developing countries, is undergoing reforms, updates and changes in every field. Taking into account the fact that the expenses are mainly carried out directly from the budget funds, it is necessary to use funds wisely and minimize risks in the implementation of any projects. It is also important to prevent violations of the law, projects that end ineffectively, and looting of funds. The article talks about the above issues.

**Key words:** budget audit, international auditing standards, public procurement, performance audit, artificial intelligence, openness and transparency.

**Kirish.** Aynan rivojlanib kelayotgan davlatlar iqtisodiyotining barqarorlashuviga, fuqarolarining yashash sharoyiti yaxshilanishiga to‘sinqilik qiluvchi eng asosiy omillardan biri bu aynan shu mamlakatdagi korruption muhitning mavjudligidir. Yurtimizda deyarli barcha sohalarda korruption xavf-xatarlar mavjudligi, ba’zi sohalar uchun davlat budgetidan har yili ajratiladigan mablag‘lar doirasida aniq maqsadlar va natijalarga qaratilgan sifat hamda miqdor ko‘rsatkichlari e’tiborsiz qolishi kabi holatlar mavjud. Iqtisodiyotni rivojlantirish, xalq farovonligini oshirishda budget mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar o‘z samarasini berishi uchun budget auditi tizimini samarali joriy etish talab qilinadi.

Yurtimizda budget mablag‘larining shakllanishida, taqsimlanishida va sarflanishida yuqori natijali nazorat tizimini o‘rnatish, hozirgi nazorat tizimlari va ulardagi kamchiliklarni yoritib berish orqali amaliy takliflar ishlab chiqish, maqolaning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- budget auditi tizimida xalqaro audit standartlari va bu sohada yaxshi natijalarga

erishgan davlatlar amaliyotini qo'llashning nazariy asoslarini o'rganish;

- budjet xarajatlarini nazorat qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha nazariy loyihalarni ishlab chiqish;

- budjet auditi tizimida fuqarolar ishtirokini ta'minlash va shaffof audit tizimini yo'lga qo'yish **bo'yicha amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.**

### Tahlil va natijalar.

Budjet auditi tizimini joriy qilish unda auditning xalqaro standartlarini joriy qilish qanday samara berishi mumkin? Bu borada rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy nazorat tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Germaniya va Fransiya misolida ko'rish mumkinki, davlat moliyaviy nazorati oliy moliyaviy nazorat organi tomonidan amalga oshiriladi va bu funksiya audit idorasiga yuklatilgan. Asosiy siyosiy rol parlamentga tegishli bo'lgan monarxik boshqaruv shakliga ega bo'lgan mamlakatlarda markaziy nazorat organi hukumatdan mustaqil bo'ladi va to'g'ridan-to'g'ri parlamentga hisobot beradi. Masalan, Buyuk Britaniyaning Milliy audit idorasi ham mustaqil tashkilot hisoblanib faqat parlamentga hisob topshiradi.

Rivojlangan davlatlar allaqachon budjet nazoratini oliy audit organlariga topshirgan va bunda xalqaro standartlar asosida faoliyat olib borishlarini ta'minlagan. Yurtimizda ham moliyaviy nazorat sohasida muhim o'zgarishlar kiritish vaqt kelgan. Mustaqilligi yuqori bo'lgan yuqori salohiyatli kadrlarga ega bo'lgan va xalqaro audit standartlari asosida faoliyat yuritadigan auditorlik organini tashkil qilish yurtimiz kelajagi va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun juda muhim deb hisoblayman.

Katta moliyaviy mablag'larni talab etuvchi, davlat loyihalari, ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarni tashkil etish va obektlarni qurish, hukumat faoliyati uchun zarur bo'lgan xaridlarni amalga oshirishni umumiyligida qilib davlat xaridlari deyishimiz mumkin. Davlat xaridlari sohasi avvalgi yillarga nisbatan ancha rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun davlat xaridlari Prezident Qarorlari, Vazirlar Maxkamasining Qarorlari bilan tartibga solingan bo'lsa, 2018-yildan birinchi bor "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, ushbu sohaga yaxshi o'zgarishlar kiritildi. Ushbu Qonunda birmuncha noaniqliklar va kamchiliklar mavjud edi. Kamchiliklarni bartaraf etish va tizimni takomillashtirish maqsadida 2021-yilda yangi tahrirdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qonun ijrosini ta'minlash uchun vakolatli organ qilib Moliya vazirligi hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilandi. Chunki Iqtisodiyot va moliya vazirligi budjet mablag'larini taqsimlash va uni nazorat qilish bo'yicha yaxshi tajribaga ega davlat organi hisoblanadi. Bundan tashqari Qonunning raqobat va xolislik prinsipini ta'minlash maqsadida Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi ham sahnaga chiqdi.

Davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyon xatarlarni oldini olish maqsadida 2022-yildan boshlab davlat xaridlarini amalga oshirish, ya'ni buyurtmachi bilan yetkazib beruvchi o'rtasidagi shatnomalar tuzishda va yetkazib beruvchi hamda xizmat

ko'rsatuvchi tender asosida tanlash to'liq electron tizimga o'tkazildi.

Afsuski davlat xaridlari qonunchilik bilan tartibga solinayotgan, takomillashtirilgan va nazorat qilinayotgan bo'sada qonunbuzilish holatlari, xató va kamchiliklar hali davom etmoqda. Tizimda nafaqat korruption holatlar bor, balki qonunchilikda ham ayrim kamchiliklar va bo'shliqlar bor.

Demak ushbu muammolarni yechishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni katta. Qilinishi kerak bo'lgan ishlarni quyidagi javdvalga kirlitsak:

T/R	Vazifa	Jarayon	Natija
1.	Yagona davlat xaridlarini portalini ishlab chiqish	Yagona, integratsiya imkoniyatiga ega bo'lgan, ma'lumotlarni analiz qilish funksiyasini bajaruvchi portalni amaliyatga joriy qilish.	Ma'lumotlarning to'g'ri shakllantirilishi va korruption xavflarning oldi olinishi
2.	Yagona davlat xaridlarini portalida sun'iy intelekt tizimlaridan foydalanish	Sun'iy intelekt tizimlari orqali narxlarning baholanishi, ma'lumotlar analiz qilinishi, jarayondagi xatolar va qonunbuzilish holatlari haqida ogohlantirilishi.	Xarid jarayonidagi xató kamchiliklar va qonunbuzilish holatlari o'z vaqtida aniqlanishi orqali davlat mablag'larining to'g'ri sarflanishiga erishish.
3.	Tender jarayoni ochiq va halol o'tishi	Tenderlarda sog'lom raqobatni tashkil qilish, imkoniyati bor tadbirkorlarning tenderda qatnashishini ta'minlash.	Tender g'olibini aniqlash va ishtirokchilarni tanlashda inson omilini kamaytirish,
4.	Tadbirkorlar reytingini haqqoniy shakllantirish	Tadbirkorlar reytingini shakllantirishda vazirlik va idoralar o'rtasida integratsiya muhitni shakllantirish	Reyting tuzilishida korxona STIRi asosida ma'lumotlarning platformada inson omilisiz shakllanishini integratsiya orqali yo'lga qo'yish. Har bir shartnomani va qonunbuzilish holatlarini jamatchilikka oshkor qilish

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot jarayonidagi bilimlarga asosan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasida budjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda davlat sektori faoliyatida budjet ijrosiga oid hisobdorlikni ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 22-avgustdagagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3917-sون Qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu sohani rivojlantirishda ustuvor vazifalarni belgilab, tartibga solinishini ko'zda tutgan.

Jumladan, Budjet mablag'larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan "Tashabbusli budjetlashtirish" tizimi amaliyatga tatbiq etildi. Bunda fuqarolar ishtiroki juda faol amalga oshirilayotganini, bu o'zgarish yaxshi natijalarni ko'rsatayotganini ko'rish mumkin.

Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari, soliq va budget siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari, shuningdek, Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy

jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish amaliyoti va davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari loyihalari hamda ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan «Fuqarolar uchun budget» axborot nashri jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilish joriy etildi.

Shaffof audit tizimini yo‘lga qo‘yish uchun nimalar qilish kerak degan savolga javob bersak. Moliyaviy nazorat sohasida o‘tkazilgan tekshiruvlarning natijasi, aniqlangan kamchiliklarning bayonini oshkor qilish yoki aynan tekshiruv jarayonlari davrida ma’lumotlarning ochiqlanishi shaffof audit tizimini tamoyillari hisoblanadi. Xorij tajribasiga asosan oliy audit organlari aniqlangan kamchiliklar va qonunbuzilishi holatlarini bo‘yicha yozilgan hisobotlarni keng jamoatchilikka e’lon qilishadi. Bu o‘z navbatida davlat organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshiradi. Yurtimizda ham tekshiruv hisobotlarini keng jamoatchilikka e’lon qilish amaliyotini qo‘llash korruption xarakatlarning oldini olishda yordam berishi mumkin.

### **Xulosa.**

Budget auditi tizimini joriy qilish istiqbollari mavzusidagi tadqiqotim bo‘yicha quydagi savollar yuzaga kelishi mumkin:

- . Budget auditi nima?
- . Bu nima uchun kerak?
- . Maqsadga erishishda nimalar amalga oshirilishi kerak?

Ushbu savollarga birma-bir javob beradigan bo‘lsak, budget auditi – budget tizimidagi moliyaviy va huquqiy jarayonlarni nazorat qilish, kamchiliklarni aniqlash, davlat organlarining faoliyati davomida samaradorlikni oshirish vazifalarini bajarish. Mamlakatimizda moliyaviy nazorat funksiyasini bajaruvchi organlar yetarlicha bo‘lsada, qonunbuzilish holatlari, korruption holatlar ko‘p sodir etilishi, davlat mablag‘larining talon-taroj qilinishi holatlari sodir etilmoqda. Shu sababli bu sohaga yangicha usullarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy qilish vaqt kelgan.

Moliyaviy nazorat sohasida nafaqat kamchiliklarni aniqlash, balki o‘rganilayotgan faoliyat yuzasidan kerakli tavsiyalarni berish amaliyotini ham joriy etish. Loyihalarni bajarilishi ustidan nazorat qilishdan oldin aynan shu loyihalarning o‘zi qanchalik jamiyatga kerakliligi o‘rganilishi zarur. Samaradorlik audit tizimini joriy etish kerak.

Davlat xaridlari sohasini ham tubdan takomillashtirish va bunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va sun’iy intelekt tizimlaridan foydalanish. Davlat xaridlari

sohasida yagona elektron tizimni yaratgan holda nazorat qilish va ma'lumotlarni analiz qilish funksiyalarini joriy etish zarur.

Bundan tashqari korruption holatlarning oldini olish, davlat organlarining fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish. Davlat tashkilotlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni oshirish. Fuqarolarning budget mablag'larini nazorat qilish huquqlari bor ekanligi to'g'risida tushuncha berish. Moliyaviy nazorat sohasida o'tkazilgan tekshiruvlarning natijasi, aniqlangan kamchiliklarning bayonini oshkor qilish yoki aynan tekshiruv jarayonlari davrida ma'lumotlarning ochiqlanishi shaffof audit tizimini joriy etish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Auditning xalqaro standartlari" Toshkent 2021. Hamdamov B.Q
2. "O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari" 2014. U.O'roqov.
3. "Davlat xaridlari tizimida elektron xaridlar hajmini oshirish masalalari" 2021. U.O'roqov.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i 4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
5. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(34), 290-294.
6. Ruth Carlitz "Improving Transparency and Accountability in the Budget Process: An Assessment of Recent Initiatives" 2013
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdag'i PF 6300-sonli Farmoni.
8. Universal Journal of Accounting and Finance 9(4): 841-851, 2021 [https://www.hrpublishing.org/journals/article\\_info.php?aid=11295](https://www.hrpublishing.org/journals/article_info.php?aid=11295)
9. "Buxgalteriya va soliq solish" jurnali R.Umarov Ilmiy maqola 2022-yil 16-may [https://www.bss.uz/article/1161-auditorlik-faoliyatining-halaro-standartlari-has-ularga-nimalar-kiritiladi-va-asosiy-oidalar?from=PW\\_blurring\\_1](https://www.bss.uz/article/1161-auditorlik-faoliyatining-halaro-standartlari-has-ularga-nimalar-kiritiladi-va-asosiy-oidalar?from=PW_blurring_1).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi O'zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budget mablag'larini taqsimlovchilarning budget dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risida 4-son Qarori
11. International Scientific and Practical Conference 2023 10 01 Ilmiy maqola "Buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil qilish" 2023 <https://www.openconference.us/index.php/poland/article/view/983>
12. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886 sonli Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2023-yil 14-avgustdag'i 377-son qarori.